O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60840200 – 1.20
“29” 08 2024 yil

“TASDIQLAYMAN”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
q.x.f.d., professor
_____ Elmurodov A.A.
“29” 08 2024

PARAZITOLOGIYA VA INVAZION KASALLIKLAR FANI BO‘YICHA ISHCHI O‘QUV DASTURI (SILLABUSI)

(Sirtqi ta’lim 3-bosqich talabalari uchun)

Bilim sohasi: 800000 – Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va veterinariya

Ta’lim sohasi: 840000 – Veterinariya

Ta’lim yo‘nalishi: 60840200 – Veterinariya farmatsevtikasi

Samarqand – 2024

Fanning ishchi o‘quv dasturi (sillabusi) 202_ yilda tasdiqlangan o‘quv reja va fan dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

1. Tayloqov T.I.- SamDVMChBU, “Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrasi dotsenti, veterinariya fanlari doktori.

2. Tursunkulov A.R.- SamDVMChBU, “Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrasi assistenti.

3. Usmanov I.G‘.- SamDVMChBU, “Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

Xoshimov B.S. – Navoyiy viloyati “Hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq ovqat maxsulotlari xavsizligi davlat markazi” direktor o’rinbosari, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Mamatova Z.B. – SDVMCHBU, “Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar kasalliklari” kafedrasi mudiri, veterinariya fanlari nomzodi.

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish” kafedrasining 2024 yil “ 29 ” 08 dagi “ 1 ” -son yig‘ilishida muhokamadan o‘tgan va fakultet Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ **Daminov A.S.**

Fanning ishchi o‘quv dasturi “Veterinariya profilaktikasi va davolash” fakulteti Kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan (2024yil _____ _____dagi ____ -sonli bayonnoma).

Fakultet dekani: _____ **Qurbanov Sh.X..**

Kelishildi:

O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i professor v.b: _____ **Ro‘ziqulov R.F.**

VIII. Baholash

Talabalarning fanlarni o'zlashtirishi 5 ballik tizimda baholanadi.

5 (a'lo) baho:
Xulosa va qaror qabul qilish;
Ijodiy fikrlay olish;
Mustaqil mushohada yurita olish;
Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo'lish;

4 (yaxshi) baho:
Mustaqil mushohada yurita olish;
Olgan bilimlarini amalda qo'llay olish;
Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo'lish;

3 (qoniqarli) baho;
Mohiyatini tushunish;
Bilish, aytib berish;
Tasavvurga ega bo'lish;

2 (qoniqarsiz) baho:
Dasturni o'zlashtirmaganlik;
Fanning mohiyatini bilmaslik;
Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik;
Mustaqil fikrlay olmaslik.

Fan Sillabusi
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Fan to'g'risida ma'lumot
Fan shifri: **PIK2705**
Fan nomi: **Parazitologiya**
Semestr/yil: **6-semestr/2024-2025-o'quv yili**
Kafedra: "Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish"
Soatlar/kreditlar: **6,0 ECTS (28 auditoriya soati, 152 soat mustaqil ta'lim)**

Ma'ruza	Amaliy mashg'uloti	Laboratoriya mashg'uloti	Mustaqil ta'lim	Jami
8	10	10	152	180

Fan bo'yicha mashg'ulotlarning joylashuvi:
Auditoriya vaqti: dars jadvaliga asosan
Talablar:
Fan uchun mas'ul kafedra: **"Parazitologiya va veterinariya ishini tashkil etish"**
Instruktor to'g'risida ma'lumot
Kafedra joylashgan joyi: **SamDVMChBU, 2-o'quv binosi, 287-xona**
Telefon: +99897-285-65-02 ish telefoni; mobil: +99897-285-65-02
E.mail. tursunkulov@mail.ru Ish vaqti: Uchrashuvga ko'ra

I. Fanni o'qitishdan maqsad - "Parazitologiya va invazion kasalliklar" fanining o'qitishdan maqsad – talabalarga parazitizmning kelib chiqishi, tarqalishi, parazitlarning klassifikatsiyasi, parazit xo'jayinlari, parazitlarning hayvonlarga yuqish yo'llari, ularning morfologiyasi va biologik rivojlanishini, hayvonlar orasida uchraydigan invazion kasalliklarni, ularning qo'zg'atuvchilarining sistematikasini, anatomo-morfologiyasini, rivojlanishini, keltiradigan iqtisodiy zararini, epizootlogiyasini, patogenezini, klinik belgilarini, patologo-anatomik o'zgarishlarini, tashxis qo'yish usullarini, davolash, oldini olish va qarshi kurash choralarini o'rganish hamda veterinariya mutaxassislarini tayyorlashda fundamental tushunchalarni berish. Parazitlarning tuzilishi yo'nalishga mos fan bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

II. Fanning vazifasi – nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, hayvonlar organizmiga parazitlarning tushish yo'llarini, invazion kasalliklarning kechishini, tarqalishini, bioekologiyasini, klinik belgilarini, diagnostikasini, davolash va oldini olish choralarini o'rganish, parazit va organizmninig o'zaro aloqadorligi, parazit-xo'jayin munosabatlari hamda parazitlarning hayotchanligi, hayvon gavdasini (to'liq yoki noto'liq) yorib ko'rish, parazitlarni tuzilishi, rangi, shakli, hajmi va joylishishini parazitologik uslublar yordamida aniqlash bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni uzviylik va uzluksizlikda o'rgatishdan iborat.

III. Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:
hayvonlar orasida uchraydigan gelmintoz, protozooz, araxnoz va entomoz

kasalliklari qo'zg'atuvchilarining morfologik, biologik va ekologik xususiyatlarini, yuqish yo'llari va manbalarini, gelmintlarning asosiy va oraliq xo'jayinlarida rivojlanishini, kasalliklarning kechishini, tarqalishini, keltiradigan iqtisodiy va ijtimoiy zararlarini, davolash, oldini olish usullari haqida ***tasavvurga ega bo'lishi;***

fan bo'yicha tavsiya etilayotgan zaruriy adabiyotlarni tanlashni, virtual elektron bilim manbalaridan foydalanishni, ta'lim texnik vositalaridan foydalanishni, fanning dolzarbligini va ahamiyatini asoslashni, kasallik qo'zg'atuvchilarini bir-biridan morfologik va anatomik farqlash ***ko'nikmalariga ega bo'lishi;***

- chorvachilik xo'jaliklari va yaylovlarning geografik-iqlim sharoiti va epizootik ahvolini tahlil qilish, parazitlarni yashash joylarini, inson va hayvonlarga etkazadigan zararini aniqlash, invazion kasalliklarning mavsumiyligi, tarqalish xususiyatlari, parazitar kasalliklarni oldini olish, xo'jalikni sog'lomlashtirish hamda qarshi kurashish tadbirlarini o'tkazish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

IV. O'qitish usullari:

Fanni o'qitish jarayonida zamonaviy uslublardan foydalanish, sohadagi muammolarni ta'limning ommaviy shakllari bilan bog'lab, talabalarning nazariy bilimlarini amaliy mashg'ulotlar orqali mustahkamlab borish lozim. O'quv materiallarini talabalar tomonidan unumli o'zlashtirish uchun ko'rgazmali qurollar o'qitishning texnik vositalari, hayvonlarning quruq va ho'l preparatlari hamda hayvonot olami bo'yicha chop etilgan ma'ruza matnlaridan keng foydalanish, talaba bilimini baholash tizimini joriy etish. Ma'ruza mashg'ulotlarida ilg'or pedagogik texnologiyalar foydalaniladi.

"Parazitologiya va invazion kasalliklar" kursini loyihalashtirishda quyidagi asosiy konseptual yondoshuvlardan foydalaniladi:

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.
Tizimli yondoshuv.
Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv.
Dialogik yondoshuv.
Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish.
Muammoli ta'lim.

V. Fanning tarkibiy tuzilishi:

5.1. "Parazitologiya va invazion kasalliklar" fanidan rejalashtirilgan ma'ruza mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Ma'ruza mashg'ulotlarining:			
№	**mavzulari**	**rejasi**	**soat**
1-modul. "Parazitologiya va invazion kasalliklar" faniga kirish			
1.	"Parazitologiya va invazion kasalliklar" faniga kirish. Veterinariya gelmintologiyasi	1.1.1. Parazitologiya va invazion kasalliklar fanining umumiy tavsifi va uning rivojlanish tarixi. Fanning maqsadi, vazifasi va boshqa fanlar bilan aloqasi hamda tarkibiy qismlari. 1.1.2. Parazitlar sistematikasi.	2

		topshirish	
30	Qon so'ruvchi hasharotlarga qarshi kurash choralari	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	6
Jami:			**152**

VII. Adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. Ҳақбердиев П.С., Қурбонов Ш.Х. Паразитология фанидан амалий ва лаборатория машғулотлари. Ўқув қўлланма. «Optimaprint plus» нашриёти Тошкент, 2015 йил.
2. Haqberdiyev P.S., Ibragimov F.B. Veterinariya protozoologiyasi va araxnoentomologiyasi. O'quv qo'llanma. «Navro'z» nashriyoti, Toshkent. 2020 yil.
3. Ятусевич А.И. и др. Паразитология и инвазионные болезни животных. Учебник. Минск, «ИВЦ Минфина», 2017 год. – 544 стр.

Qo'shimcha adabiyotlar

4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil. – 29 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil. – 47 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil. – 485 bet.
7. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevral, PF-4947-son Farmoni. Toshkent, 2017 yil.
8. Mirziyoyev Sh.M. "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora –tadbirlari to'g'risida" gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori. Toshkent, 2017 yil.
9. Oripov A.O, Davlatov R.B., Yuldashov N.E. Veterinariya gelmintologiyasi. O'quv qo'llanma. "Navro'z"nashriyoti Toshkent, 2016 yil. – 240 bet.
10. Salimov B.S., Daminov A.S. Zoologiya. Darslik. "Gold Print Nashr" Тошкент, 2018 yil. – 308 bet.

Axborot manbaalari

11. www.Ziyo.net.
12. www.uralrti.ru.
13. www.twirpx.com
14. www.vetas.uz
15. www.vetjurnal.uz
16. www.veterinariy.actavis
17. www.fvat.academy.uzsci

		konspekt qilib, referat yozish	
10	Go'shtxor hayvonlar askaridatozlari	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	4
11	Qo'y va echkilar protostrongilidozlari	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	4
12	Otlar parafilyariozi va onxoserkozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual topshirish	4
13	Qoramol setariozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual topshirish	4
14	Hayvonlar diaktofimozi	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	4
15	Cho'chqa akrokantorinxozi	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
16	Hayvonlar babeziozi va fransaiellyozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	6
17	Qo'y va echkilarning piroplazmozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual topshirish	6
18	Otlarning piroplazmozi va nuttaliozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	6
19	It piroplazmozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	6
20	Hayvonlarning toksoplazmozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	6
21	Hayvonlar sarkosistozi	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
22	Tuyalarning su-auru kasalligi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	6
23	Itlar lishmaniozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	6
24	Hayvonlar anaplazmozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	6
25	Parazitoform kanalar va ularga qarshi kurashish choralari	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual topshirish	6
26	Akariform kanalar va ularga qarshi kurashish choralari	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual topshirish	6
27	Echki krivelliozi	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
28	Tuyalar sefalopinozi	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	6
29	Zoofil pashshalar va ularga qarshi kurash choralari	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual	6

		Parazitologiyaning boshqa biologik hamda maxsus fanlar bilan bog'liqligi. Organizmlarning o'zaro munosabatlari. Parzitizmning kelib chiqishi va uning tabiatda tarqalishi. 1.1.3. Hayvonlar organizmida parazitlarning joylashuvi, ularning morfologiyasi va biologik rivojlanishi. 1.1.4. Veterinariya gelmintologiyasi va uning tavsifi. Gelmintlar va ular tomonidan chaqiriladigan kasalliklar.	
2.	Trematoda va trematadozlar	2.1. Trematodalarning sistematikasi. 2.2.Trematodalarning Hayvonlar organizmida parazitlarning joylashuvi, ularning morfologiyasi va biologik rivojlanishi. 2.3. Trematodalar va ular tomonidan chaqiriladigan kasalliklar.	2
2-modul. Veterinariya protozoologiyasi.			
3.	Veterinariya protozoologiyasi. Hayvonlar piroplazmidozi. Hayvonlar eymeriozi Qoramol teyleriozi.	2.1.1 Veterinariya protozoologiyasining umumiy tavsifi. 2.1.2. Hayvonlar piroplazmidozining umumiy tavsifi, kasalliklarning tarqalishi, iqtisodiy zarari, qo'zg'atuvchilarining tuzilishi, biologiyasi, epizootologiyasi, klinik belgilari, patalogoanatomik o'zgarishlari. 2.1.3. Qoramol teyleriozining umumiy tavsifi.	2
3-Modul. Araxnozlar va entomozlar.			
4.	Veterinariya araxnologiyasi va entomologiyasi.	3.1.1. Veterinariya araxnologiyasining umumiy tavsifi. 3.1.2. Psoroptoz, xorioptoz va sarkoptozning umumiy tavsifi. 3.1.3. Veterinariya entomologiyasining tavsifi. 3.1.4. Qoramol gipodermatozi va qo'y estrozining umumiy tavsifi.	2
Jami:			**8**

5.2. "Parazitologiya va invazion kasalliklar" fanidan rejalashtirilgan amaliy mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Amaliy mashg'ulotlarning			
№	**mavzulari**	**rejasi**	**soat**
1.	Hayvonlar fassiolyozi	1.1. Hayvonlar fassiolyozi, kasallik qo'zg'atuvchilarining sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi, tashxisi va qiyosiy tashxisi. 1.2. Davolash, qarshi kurashish va oldini	2

		olish chora-tadbirlari. 1.3. Retsept namunalari.	
2.	Hayvonlar monieziozi, tezanieziozi va avitellinozi	4.1. Kavshovchi hayvonlar monieziozi, tezanieziozi va avitellinozi kasalliklar qo'zg'atuvchilarining sistematikasi, morfologik va biologik xususiyatlari, tashxisi va qiyosiy tashxisi. 4.2. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish chora-tadbirlari. 4.3. Retsept namunalari.	2
3.	Otlar paraskaridozi	6.1. Ot paraskaridozi, kasallik qo'zg'atuvchilarining sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi, tashxisi va qiyosiy tashxisi. 6.2. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish chora-tadbirlari. 6.3. Retsept namunalari.	2
4.	Hayvonlar diktiokaulyozi	9.1. Diktiokaulyoz, kasallik qo'zg'atuvchilarning sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi, tashxisi va qiyosiy tashxisi. 9.2. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish chora-tadbirlari. 9.3. Retsept namunalari.	2
5.	Qoramollar gipodermatozi, qo'y estrozi	15.1. Qoramollar gipodermatozi, kasallik qo'zg'atuvchilarining sistematikasi, morfologiyasi, biologiyasi va qiyosiy tashxisi. 15.2. Davolash, qarshi kurashish va oldini olish chora-tadbirlari. 15.3. Retsept namunalari.	2
Jami:			**10**

5.2. "Parazitologiya va invazion kasalliklar" fanidan rejalashtirilgan laboratoriya mashg'ulotlarining kalendar tematik rejasi

Laboratoriya mashg'ulotlarning			
№	**mavzulari**	**rejasi**	**soat**
1.	Gelmintozlar diagnostikasi	1.1. Hayvonlarni triklik vaqtida gelmintoz kasalliklarini aniqlash usullari. 2.1. Hayvonlarni o'lgandan so'ng gelmintoz kasalliklarini aniqlash usullari.	2
2	Trematodalarning diagnostikasi	2.1. Trematodalarning qo'zg'atuvchilari, ularning turlari, parazitlik xususiyatlari, ekologiyasi, tarqalishi va ular chiqaradigan kasalliklar. 2.2. Trematodalar bilan zararlangan hayvonlardan olingan na'munalarni tekshirish va ularga diagnoz qo'yish usullari.	2
3.	Sestodlarning diagnostikasi	3.1. Sestodlarning lichinkali shakllari (sistitcerk, tsenur, exinokokkoz, alveokokkoz, tsysticerkoid, strobiloserk) va ularning bir-biridan farqi. 3.2. Sestodlar bilan zararlangan hayvonlardan olingan na'munalarni tekshirish va ularga diagnoz qo'yish usullari.	2
4.	Protozoalarning diagnostikasi	4.1. Protozoalarning sistematikasi, morfologik, biologik, ekologik xususiyatlari, ular tomonidan chaqiriladigan kasalliklar. 4.2. Protozoalar tomonidan qo'zg'atiladigan kasalliklarni laboratoriyada aniqlash usullari.	2
5.	Araxnoentomozlar diagnostikasi	5.1. Araxnoentomozlarning sistematikasi, morfologik, biologik, ekologik xususiyatlari, ular tomonidan chaqiriladigan kasalliklar. 5.2. Araxnoentomozlar tomonidan qo'zg'atiladigan kasalliklarni laboratoriyada aniqlash usullari	
Jami:			**10**

VI. "Parazitologiya va invazion kasalliklar" fanidan rejalashtirilgan talabalar mustaqil ta'limining kalendar tematik rejasi

№	**Mustaqil ta'lim mavzulari**	**Amalga oshirish mexanizmi**	**Hajmi (soatda)**
1	Parazitologiya fanining tarixi, uni o'rganish uslublari	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual topshirish	4
2	Qo'y va echkilar euritrematozi va xasstileziozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	4
3	Go'shtxo'r hayvonlar opistorxozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	4
4	Itlar teniidozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual topshirish	4
5	Hayvonlar alveokokkozi	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	4
6	Qo'y va echkilar sistetserkozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib konspekt qilib, referat yozish	4
7	Qo'y va echkilar stileziozi	Adabiyotlardan foydalanib amaliy topshiriqlarni bajarish	4
8	Go'shtxor hayvonlar difillobotriozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib taqdimot tayyorlash va individual topshirish	4
9	Buzoqlar neoaskaridozi	Adabiyot manbalaridan foydalanib	4